

**Otayeva Mohinur**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada Aleksandr Makedonskiyning hayoti,yurishlari,bosib olgan hududlari,olib borgan siyosati,Iskandar Zulqarnayn deb ulug`lnishi va bu ikki shaxs o`rtasidagi bahsli munozaralar bayon etilgan.*

**Annotation:** *This article describes the life of Alexander the Great, his campaigns, the territories he conquered,his policies, his glory as Alexander the Great, and the controversial debates between these two people.*

**Kalit so`zlar:** *Aleksandr Makedonskiy, FillipII, Dardanel jangi, Issos jangi, Aristotel,Luvi,Plutarx, Arrian,Quintus Curtius Rufus,Iskandar Zulqarnayn*

Aleksandr Makedonskiy qadimgi Makedoniya podshosi ,Buyuk Aleksandr sifatida ham tanilgan. Milloddan avvalgi 356-323-yillar davomida yashagan va tarixda eng buyuk harbiy qo'mondonlardan biri sifatida qolgan. U shuningdek "Buyuk Aleksandr" deb atalgan chunki u o'zining qisqa umri davomida juda katta hududlarni zabit etgan.Aleksandr Makedonskiy Makedoniya qiroli Fillipp II va uning xotini Olimpiada farzandi sifatida 356-yilda Pilla shahrida tug'ilgan. U yoshligidan buyuk talim olgan va uning ustozlari orasida mashhur faylasuf Aristotel bo'lgan.Aristotel unga yunon yunon falsafasi ilm-fan va sanat bo'yicha chiqur bilim berdi.Shuningdek yosh Aleksandr o'zi bo'lgan davrning eng yaxshi jangovar sanatlarini o'rgandi va harbiy strategiyalarni o'rghanishga qiziqdi.

Aleksandrning otasi Fillipp II Makedoniya imperiyasini kuchaytirgan va yunon dunyosiga katta tasir ko'rsatgan .Fillippning o'limidan so'ng 20-yoshida taxtga o'tirdi.Uning hukmronlikka kelishi juda tez amalga oshdi va imperiyasini barqarorlashtirish uchun turli davlat bilan kurashdi.Aleksandr o'zining birinchi harbiy yurishiga Makedoniyaning ichki qarama-qarshiliklarini bartaraf etdi.

Aleksandr eramizdan avvalgi 340-yilda shimoliy Yunoniston tog'li hududlaridagi qabilalardan birining qo'zg'olonini bostirib birinchi bor o'zini kuchli sarkarda ekanligini ko'rsatgan.

Aleksandr o'zini birinchi navbatda Makedoniyani ichki ishtirokidagi qiyinchiliklardan xalos etdi va o'z hududini mustahkamladi.334-yilda u Osiyo tomon yurishni boshladi va Dardanel (Gallipoli)bo'ylab o'tib Mo'g'ul va Persiya imperiyasiga qarshi muvaffaqiyatlari urush boshladi. U milloddan avvalgi 333-yilda Issos jangida , 331-yilda Gaugamela jangida katta g'alabalar qozonib Persiya imperiyasini ag'darishga muvaffaq bo'ladi.

Aleksandr shuningdek ,Misrni zabit etdi va u yerda piramidalarda qadimiy Misr madaniyatiga hurmat ko'rsatgan holda,o'zini Misrning faraoni sifatida elon qilgan. Sharqqa yo'l: Aleksandr Hindistonning shimoliy qismiga qadar yurdi va mil.avv 326-yilda Porus (Hindisonda) bilan Porusning qo'shiniga qarshi jangda g'alaba qozondi.


## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Biroq uning qo'shini Hindistonga chuqurroq kirishni istamadi va Aleksandr qaytishga majbur bo'ldi.

Aleksandr 323-yilda Bog'dod (hozirgi Iroq hududida ) 32-yoshida sirli kasallikdan vafot etdi.U vafot etganida uning imperiyasi juda katta edi,uning hududi Makedoniyadan Hindistongacha cho'zilgan edi.

Aleksandr Makedonskiy tarixiy shaxs sifatida dunyoda eng mashhur sarkardalardan biri hisoblanadi.Uning haqida turli davrlar va madaniyatlarda bir nechta fikrlar bildirib uning shaxsiyati va hukmronligi haqida ko'plab qarashlar mavjud.

Xarakter va jasorat: Aleksandr Buyukning qo'mondonlik va jangovar qobiliyatları haqida ko'plab tarixchilarning fikrlarini uchratish mumkin.Masalan Aristotel Aleksandrning o'qituvchisi bo'lib unga ilm-fan ,falsafa va sanatni o'rgatgan.Aristotel Aleksandrni aqli va marifatli shaxs deb bilgan ,garchi u ko'pincha o'zining harbiy maqsadlari bilan shug'ullangan bo'lsada.

Yunon tarixchilari va siyosatchilari :Yunon tarixchisi Plutarx Aleksandrni jasur va dono rahbar sifatida tariflagan lekin u shuningdek,uning jangovar shijoatining chegarasz ekanligini ham takidlagan.Plutarx Aleksandrni qisqa umri davomida juda katta muvaffaqiyatlarga erishgan shaxs sifatida ko'rgan.

Rim tarixchisi Luvi Aleksandrni ulkan imperiyani qurishdagi eng buyuk yetakchilardan biri sifatida tariflagan.U Aleksandrning muvaffaqiyatlardan ko'ra uning merosining hayotdagi davomiyligi haqida ko'proq fikr yuritgan.

Aleksandr Makedonskiy haqida yozilgan asarlar juda ko'p va ular uning hayoti ,harbiy yutuqlari, siyosiy strategiyalari va merosiga oid turli fikrlarni ifodalaydi .Quyida Alekandr Makedonskiy haqida yozgan bazi muhim asarlarni yaratgan mualliflarni keltiraman.

Plutarx –“Yunon va Rimning buyuk odamlari hayotlari””. Plutarxning bu asari Aleksandr Makedonskiy va boshqa tarixiy shaxslar haqida malumotlar beradi. U Aleksandrni yunon va rim tarixining buyuk qahramonlardan biri sifatida tasvirlaydi.Plutarxning fikricha Aleksandr o'zining jasorati va aqliligi bilan ajralib turadi.Shuningdek Plutarx uning hayotidagi axloqiy jihatlarini ham ko`rib chiqadi.

Arrian-“Aleksandrning yurishlari” Arrian yunon tarixchisi, Aleksandr Makedonskiyning yurishlari haqida eng muhim va keng qamrovli asarlardan birini yozgan.Arrian bu asarda Aleksandrning janglardagi muvaffaqiyatlarini va uning harbiy strategiyasini batafsil bayon qiladi. U o`zining asarini Aleksandrning generaliga aylangan Ptolemey va boshqa ishonchli manbalarga asoslanib yozgan.

Quintus Curtuis Rufus-“Aleksandrning tarixiy hayoti” bu asarda Quintus Curtius Rufus Aleksandrning hayoti va hukmronligi haqida kengroq tasvir beradi.U Aleksandrning shaxsiy hayoti , uning janglari va harbiy strategiyalarini o'rganadi.

Curtius Rufusning yoritgan voqealari ko'pincha dramatik va hissyotli bo'lib Aleksandrni bazida qahramon bazida esa kamchliklari bor shaxs sifatida tasvirlaydi.

Bilamizki Aleksandr Makedonskiy o'z davrida “Iskandar Zulqarnayn” deb ham aytilgan.Biz shu kungacha Iskardar Zulqarnayn bilan Aleksandr Makedonskiy bir shaxs deb bilganmiz.Ayrim olimlar ham ularni bir shaxs deb talqin qilishgan ammo, ular ikki

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

shaxsdir.Bazi tarixchilar va adabiyotlarda bu ikki shaxsning o`xshashliklari haqida turli farazlar mavjud. Aleksandr Makedonskiy (356-323) Yunonistoning zabardast hukmdori bo`lib u Makedoniya imperiyasini boshqargan va Hindistongacha kengaytirgan. Uning davri va yuksak harbiy muvaffaqiyatlari bilan tarixda muhim o`rin egallagan shaxs. Iskandar Zulqarnayn esa Quronni Karimda eslatilgan tarixiy bir shaxsdir.U “ikki quloqli”(Zulqarnayn)deb ataladi,chunki uning dunyoning ikki uchiga yetib borgani haqida hikoya qilinadi.Bu shaxsning kimligi haqida turli fikrlar bor,bazi tarixchilar Iskandar Zulqarnaynni Aleksandr Makedonskiy bilan bog`lashsa boshqalari esa bu shaxsni boshqa bir hukmdor sifatida ko`rishadi.Ular turli tarixiy shaxslar, lekin bazi adabiyotlarda bir biriga o`xhatilgan yoki ular orasida bog`lanish mavjud degan nazariyalar mavjud.

Tarixiy manbalar va diniy matnlarga qarab bu ikki shaxsning o`xshashligi yoki farqlari haqida turli fikrlar mavjud, Iskardar Zulqarnayn nomi Kahf surasida (18-sura) keltirilgan. Ushbu suranining 83-oyatidan 98-oyatiga qadar bo`lgan qismlarida Iskandar Zulqarnayn haqida so`z boradi.Iskardar Zulqarnayn Quronda buyuk bir hukmdor sifatida tasvirlandi, u Xudoning inoyati bilan mamlakatlarni zabit etgan,o`zining adolatli hukmronligi bilan mashhur bo`lgan.Quronda uning dunyoning turli joylariga safar qilgani,bir joyda esa qorong`u xalqlarni uchratgani ,boshqa joyda esa xavfli devlar Yajuj va majujlarga qarshi kurshgani va devor qurdirgani haqida aytilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Aleksandr Makedonskiy qisqa umriga qaramay,dunyo tarixida mislsiz tasir ko`rsatgan buyuk sarkarda sifatida tanilgan.Uning harbiy g`alabalari,madaniy merosi va strategic yondashuvlari insoniyat tarixida o`chmas iz qoldirdi.

Aleksandr Makedonskiy va Iskardar Zulqarnayn bir-biriga o`xshash nomlarga ega bo`lishiga qaramay, tarixda va madaniyatda alohida shaxslar sifatida mavjuddir.Shu sababli,Aleksandr Makedonskiy va Iskandar Zulqarnayn bir xil shaxs bo`lmasligi mumkin, ammo ularning har ikkalasi ham tarixda katta iz qoldirgan, kuchli rahbarlar sifatida xotirlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rajabov.R.R. ‘Qadimgi dunyo tarixi’ T-2009 yil 287-bet
- 2.Boynazarov.F.A ‘Qadimgi dunyo tarixi’ T-2004
- 3.Дандамаев.М.А «Политическая история Ахеменидской державы» М-1985
- 4.Гафуров Б.Г Цибукидис Д.И «Александр Македонской и Восток» М-1980
- 5.Источниковедение Древний Г «Кузицина» М-1982
- 6.Plutarx “Yunon va Rimning buyuk odamlari hayoti”
- 7.Arrian “Aleksandrning yurishlari”
- 8.Quintus Curtius Rufus “Aleksandrning tarixiy hayoti”
- 9.Quroni Karimning kahf surasi